



## URUG' YIRIKLIGINING NO'XAT NAVLARIDA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

**Mustanova Zarnigor Sobirovna**

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

**Mustanov Sobir Boliyevich**

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institute dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10202426>

**Annotatsiya.** No'xat urug'larining yirikligi va ekish davri uning hosildorligiga kata ta'sir o'tkazadi. No'xat urug'larining yirikligi hosilning yuqori miqdorda bo'lishi va o'sish rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlari:** urug' yirikligi, no'xat navlari, tuproq baniteti, tuproqning, hosildorlik.

Hozirgi kunda inson ehtiyojlarini iqtisodiy barqarorligi, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish tuproq unumdorligini va ekinlar hosildorligini oshirish, yangi va xaridorgi mahsulotlar yetishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo'nalishlarini joriy etish, insonlar salomatligini yaxshilash, immun tizimini oshirish maqsadida tabiiy mahsulotlarga talab oshib bormoqda.

Keyingi yillarda Respublikamizning barcha hududlarida iqlimning global isishi qishloq xo'jaligi ekinlari, jumladan, dukkakli ekinlarning o'sishi va rivojlanishining eng muhim bosqichlarida havo haroratining keskin oshishiga (20-45 °C), sug'oriladigan yerlarda sug'orish suvining yetishmasligiga, havo va tuproq qurg'oqchiligining tez-tez sodir bo'lishiga olib keldi. Bir shart bilan o'tkazish ushbu ekinlardan barqaror yuqori sifatli hosil yetishtirishga to'sqinlik qilayotgani bois, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga (yuqori harorat, qurg'oqchilik), kasallik va zararkunandalarga chidamli dukkakli don ekinlarining yangi navlarini yaratish, yaratilgan navlarni yetishtirish agrotexnologiyasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

No'xat urug'ida odam va hayvonlar uchun zarur barcha aminokislotalar (lizin, metionin, triptofan va boshqalar) bo'ladi. Ular yetishmay qolganda, organizm oqsilning faqat bir qismini o'zlashtiradi, qolgan qismi esa energiya material bo'lib xizmat qiladi. Doni tarkibida 19-33% oqsil, 4-8% moy, 0,2-4% kul, 48-61% azotsiz moddalar, 2-12% klechatka, vitaminlar va aminokislotalar mavjud.

Bizga ma'lumki, no'xat navlaridan serhosil va sifatli urug' olishda asosiy agrotexnologik chora-tadbirlardan biri urug'larni o'z vaqtida va to'g'ri ekish orqali sog'lom maysazorlarni yig'ishdir. Chunki, kuzgi ekilgan no'xatning o'sishi,





rivojlanishi, qishga chidamliligi va boshqa omillar orasida kuzgi ekish davri muhim ahamiyatga ega.

Har bir hududda tuproq va iqlim sharoitiga qarab no'xatning kuzgi ekish optimal muddatlarda olib borilishi, chigitning bir xilda yig'ib olinishi, qishki dam olish davriga kirishga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi, qishlashning me'yorida bo'lishi yuqori hosil olishni ta'minlaydi. No'xat ekinlari viloyat uchun juda erta ekilgan bo'lsa, kuzda havoning iliq bo'lishi va tuproq namligi ta'sirida o'simliklar unib chiqishi va buning natijasida qishda va erta bahorgacha sodir bo'ladigan sovuqdan maysazorga zarar yetishi mumkin. Kech kuzda ekilgan no'xat urug'lari erta bahorda unib, unib chiqishi bilan qishlaydi. Juda kech ekilganda, ya'ni qishda urug'lar umuman unib chiqmasligi mumkin.

No'xat urug'larining yirikligi va ekish davri uning hosildorligiga kata ta'sir o'tkazadi. No'xat urug'larining yirikligi hosilning yuqori miqdorda bo'lishi va o'sish rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

No'xat 10-12 sm chuqurlikka ekilganida 89,7% va 82,9%, ekish chuqurligi variantlari bo'yicha noyabr oyining uchinchi o'n kunligida (30,11) ekilganda mos ravishda 87,4%, 92,3%, 86,7%; va 80,7% 10 dekabrda ekilganida, 85,5%, 80,0% tashkil etdi.

No'xat urug'i unayotganda suvni ko'p shimib oladi, shuning uchun uni erta muddatda nam tuproqqa ekiladi. Qishga yaqin noyabr, dekabrda ekilgan no'xat ko'pincha askaxitoz kasalligi bilan kuchli zararlanishi mumkin. Shuning uchun kuzda sovuqqa, askaxitoz kasalligiga chidamli navlarini ekish lozim. Nafaqat kuzda bahorda ekilgan no'xat navlarining ham aksariyati bahor seryog'in kelganda askaxitoz kasalligi bilan zararlanadi. Buning oldini olish uchun avvalo kasallikka chidamli navlarni ekish lozim.

Hamma dukkaklilar to'liq pishgandan keyin no'xatni 5-10 kunda o'rib yig'ib olinadi. No'xat o'simligi chatnamaydi va tokilmaydi. Pishiby yetilgan no'xat uzoq turib qolgandagina uning dukkaklari butunligicha to'kiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мустанов С. Значение стручковых культур в обогащении почвы биологическим азотом. Журнал "Сельское хозяйство Узбекистана". Ташкент. 2013;29.
2. Хамдамов, И. Х., Ходжаева, Н. Ж., & Мустанов, С. Б. (2005). Разветие и урожайность сортов нута при различных весенних сроках посева. Fan chorrahalari. Ilmiy to'plam. Samarqand, 123-137.
3. Усмонов, И. С., & Ташпулатов, Й. Ш. (2021). Способы выращивания спаржи (*Asparagus L.*) в условиях слабозасолённых почв Хатирчинского района (Самарканд, Узбекистан). Вестник науки, 3(6-1 (39)), 151-157.





4. Mustanov, S. B., Mustanova, Z. S., & AB, H. (2022, June). THE IMPORTANCE OF WATERING PEAS SEEDS. In Archive of Conferences (pp. 196-198).
5. Boboqandov, N. F. (2023). DOMINANT O'SIMLIK TURLARIDA TURLI FASLLARDA VA TURLI YAYLOV INTENSIVLIGIDA PROEKTIV QOPLAM KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHI (JANUBIY QIZILQUM). Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 877-882.
6. Mahammadiyev, J., Yoqubov, M., & Nurmanova, I. (2023). ZARARKUNANDALAR VA HASHAROTLARGA QARSHI KURASHUVCHI VOSITALARNING MIKROKAPSULLARI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 1201-1205.
7. Ташпулатов, Й. Ш., & Шерназаров, Ш. Ш. (2019). Euglenophyta в среднем течение реки Зарафшан (Узбекистан). Биологический журнал, (3), 11-13.
8. Makhammadiev, Jasur. Mikro kapsulasyonda emulsifiye damlacıkların korunmasında kullanılacak polimerlerin sentezi. MS thesis. 2020.
9. Boboqandov, N. F., & Nomozova, Z. B. (2023). LEONTICE TURKUM TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 679-683.
10. Djumayeva, G. R. (2022). ARTISHOK "CYNARA SCOLYMUS L." NING ONTOGENEZI. Academic research in educational sciences, (Conference), 207-210.
11. Yoqubov, M., Mahammadiyev, J., & Eshonqulova, A. (2023). SABZI VA OLMADAN TAYYORLANGAN MAHSULOTLARNING TARKIBINI O'RGANISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 872-876.
12. Исомов, Э. Э. (2023). НЕКОТОРЫЕ БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ CYNARA SCOLYMUS LB В УСЛОВИЯХ СРЕДНЕЗАСОЛЁННЫЕ ПОЧВЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ (УЗБЕКИСТАН). АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЩЕСТВА, НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 3, 23.
13. Рахмонов, V. N. (2022). AZOLLA (Azolla) VA RYASKA (Lemna) O'SIMLIGIDAN BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, (Conference), 638-640.
14. Djumayeva, G. R., & Isomov, E. E. (2023). BUXORO VILOYATIDA O'STIRILGAN ARTISHOK "VIOLETTO" NAVINING ONTOGENEZI. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(9), 83-87.





15. Рахмонов, В. Н. (2023). МАИШИЙ ВА САНОАТ ОҚОВА СУВЛАРИНИ БИОЛОГИК ТОЗАЛАШДА КАРОЛИНА АЗОЛЛАСИ (*AZOLLA CAROLINIANA* WILLD.) ВА КИЧИК РЯСКА (*LEMNA MINOR* L.) ЎСИМЛИКЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 897-900.

